

ONA TILINI (DAVLAT TILI) O`QITISHNING UMUMDIDAKTIK VA O`ZIGA XOS PRINSIPLARI

Bekchonova Dilnoza Ozimboyevna

Urganch tumanidagi 15-son umumiy o'rta ta'lim maktabining

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikr-mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish, ya'ni interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat yorug' ko'rsatuvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos.

Kalit so'zlar: ona tili, ta'lim, prinsip, tarbiyaviy

Modomiki, məktəb təlimində ona tili eng asosiy və etakchi o'quv fanlardan ekan, oily təlimində bakalavr tizimində "Ona tili o'qitish metodikası" ham huddi shunday mavqega ega.

Təlim prinsipları jamiyatımızning məktəb oldığa qo'ygan təlabalaridan kelib chiqadi. Shaxsnı har tomonlama rivojlantırış, uning ijodiy imkoniyatlarını kengaytirish, o'qitish prinsiplarını amalda qo'llash bilən chambarchas bog`langan.

O`qitish prinsipi nima? "Prinsip" lotincha so`z bo`lib, asos, qoida, təlab singari ma`nolarni ifodalaydi. "O`qitish prinsipi" deganda dars samaradorligini tə`minlash, qoidalar tushunilədi. O`qituvchi təlim ishini təşkil etər ekan, ana shu qoida və təlablardan kelib chiqadi və ular o`rtasidagi uzviy bo`gliqliknı tə`minlagan holda amalda tədbiq etish orqali ko`zlangan məqsadga erishadi.

Təlim jarayonında darsnı təşkil etish, boshqarış, nazorat qılışda o`quvchi və o`qituvchi faoliyatiga qo`yılardıqan təlablar, didaktik qoidalar təlim prinsiplarıdır.

Mazkur prinsiplar har bir o`quv predmetida o`ziga xos tətbiq etilədi.

Təlimində tarbiyaviyliyi prinsipi.

Ta`limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o`rganish jarayonida o`quvchilarga milliy g`oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtirom, yaxshilik, adolatli bo`lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi.

Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo`llari ko`p:

- har bir mavzu va bo`limning ta`limiy imkoniyatlarini to`la ishga solish;
- tanlangan matnlarning o`rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yunalishlariga to`la moslashtirish;
- darslikda berilayotgan ma`rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishini ta`minlash shular jumlasidandir.

Ona tilini o`qitishda ta`lim, tarbiya va rivojlantirishning uyg`unligi prinsipi.

Maktabda o`quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va garammatikasi yuzasidan o`ta zarur bol`gan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffo`zi, yozma nutqda tinish belgilarni to`gri ishlatish yuzasidan zarur ko`nikma va malakalar bilan taminlanadi. Ayni vaqtida ona tili mashg`ulotlari o`quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

Ona tilini o`qitishda ilmiylik va tushunarlilik prinsipi. Ta`limning ilmiyligini va bolalar uchun tushunarli bo`lishi prinsiplari o`zaro bog`langan, bir-birini to`ldiradigan didaktik kategoriyalardir.

Ona tilini o`qitishda sistemativiylik va izchillik prinsipi. Ma`lumki, ona tili o`quv predmeti sifatida ma`lum sistemadan iborat. Bu sistema o`zbek tilining fonetik, leksik, grammatik, tomonlarini o`z ichiga oladi. Ana shu til tizimini tashkil qilgan unsurlarning har bir o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi bilan bir qatorda, ular bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog`langan. Maktabda tilning fonetikasini o`rganmasdan uning grammatikasini o`rganish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Fonetika va grafikani etarli darajada o`zlashtirgan o`quvchigina leksikani puxta o`zlashtiradi. Leksika puxta o`rganilgach, so`z turkumlarini o`rganish osonlashadi. Shuning uchun til hodisalarini o`zaro uzviy aloqadorlikda o`rganish uning samaradorligini ta`minlovchi asosiy vosita sanaladi.

Ta`limda izchillik prinsipi sistemalilik prinsipi bilan uzviy bog`lanan. Kishining kundalik faoliyatida ham, o`quv ishlarida ham mustaqillik muntazamlilik bo`lishi shart. Akademik I.T. Pavlov: “Ishning boshlanishidayoq o`zingizni fan asoslarini izchil egallashga o`rgating. Fanning eng yuksak cho`qqilarini egallashdan oldin

uning ibtidosini o`rganing. Oldingilarini o`zlashtirmasdan turib, keyingilarini o`rganishga utmang”, -deb o`quvchilarga maslahat beradi.

Ona tilini oqitishda nazariyani amaliyat bilan bog`lash prinsipi. Ona tili o`qitishda nazariyani amaliyatga bog`lash daganda o`quvchilardan tildan egallayotgan ilmiy-nazariy bilimlarini amalda qo`llashini ta`minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo`lgan amaliy ko`nikmalar bilan qurollantirishni tushunamiz. Nazariyani amaliyatga bog`lash ona tilini o`qitishni foydali maqsadlarga burish. Urganilayotgan til hodisalarini o`quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishga buysundirish, til ta`limini hayot bilan, kundalik turmush bilan, odamlaring mehnat faoliyati bilan bog`lash demakdir.

Ona tilini o`qitishda onglilik, faollik va mustaqillik prinsiplari. Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda o`rganilayotgan mavzuga oid axborot mazmunini asosli egallah, xulosa va umumlashmalarni chuqur va atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni sistemali va to`g`ri bayon qilish, egallangan bilimlarning ishonch va e`tiqodga aylanishi, o`rganilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana olish tushuniladi. Bu prinsip til hodisalarining mohiyatini anglab, tushunish, ongli o`zlashtirishni talab qiladi.

Onglilik prinsipi. Onglilik bilimlarni ongli ozlashtirishga yo`naltirilgan prinsipdir. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ta`limning asosiy maqsadi, hayot uchun zaruriyligini aniglash;
- daliliy materiallarni ongli egallah va o`zaro farqlay olish;
- bilimlarni o`rganish, mustahkamlash, takrorlash;
- egallangan va o`zi erishgan natijalarni baholay bilish xususiyatlarini tarbiyalaydi.

Demak, ona tilini o`qitish metodikasida onglilik prinsipiga asoslanish ma`no va mazmunni anglab, amaliy vazifalar – so`rash, tinglash, o`qish, yozish kabilarni bajarishda o`zlashtirilgan ko`nikma va malakaga, ijodiy tashabbuskorlikka, mustaqillikni oshirishga imkon beradi.

Ona tili ta`limi ongliligi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. So`z boyligini oshirish va ma`naviy guruhlar ustida ishlash.
2. Fikr bildirishda mantiqiy izchillikni ta`minlash.
3. Tilning ifoda imkoniyatlaridan to`g`ri va o`rinli, nutqiy vaziyatlardan mos ravishda foydalana olish.

4. Mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish. Ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish.

5. Kommunikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositalardan tik o`rganish jarayonida unumli foydalanishning turli usul va vositalarini bilish.

Lingvopsixologik o`quv topshiriqlari tizimini ona tili ta`limiga joriy etish, o`quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so`z tanlash va fikr bildirish ehtiyojini hoil qilishga, ko`nikma va malakalarini shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko`lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

O`quvchi - ta`lim – o`qituvchi tizimida o`zaro munosabatlar tasnifi quyidagicha: DTS talabiga ko`ra o`quvchi ta`lim jarayonining faol sub`ekti sifatida o`zi izlanishi, til hodisalarini kuzatish, farqlashi, tahlil va tasnif qilishi, xulosalashi lozim. Shunday usullar bilan ishslash orqaligina biz o`quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishimiz, rivojlantirishimiz mumkin.

Yangilangan ta`limning mazmuni, mohiyati, tarkibiy shakllanishi asoslarini quyidagicha belgilasa bo`ladi:

1. Anglash, baholash, amaliy qo`llay olish zarur bo`lgan til vositalari, imkoniyat va me`yorlarning izchil tizimini dars jarayoniga tatbiq etish.

2. Nutqiy faoliyatni bosqichma-bosqich shallantirishda og`zaki va yozma nutq malakalarini hosil qilish va rivojlantirish.

Shundagina o`quvchi fikr bildirishga shoshmaslikka, mustaqil mushohada yuritishga, so`zlashdan oldin har bir so`zni o`ylab ko`rishga, sharoitga mos so`z tanlash va o`z nutqida o`rinli ishlatishga o`rganadi. Unda so`zga mas`ullik hissi paydo bo`ladi, ixcham, ravon va raso so`zlashga odatlanadi.

Mustaqillik va faollik prinsipi.

Mustaqillik va faollik orqaligina o`quvchi ta`limining faol sub`ektiga aylanadi. Mustaqillik faollik uchun sharoit yaratса, faollik mustaqillikni tarbiyalashga asos bo`ladi.

“Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o`z yo`liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik”, - deb ta`kidlaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov.

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko`rsatishi mustaqil fikrlashi orqaligina amalga oshirilishi hech kimga sir emas. A.Disterverg aytganidek: “Mustaqil faoliyatga etaklovchi ta`lim haqiqatga, go`zallikka, ezgulikka xizmat qiladi, xarakter va ishonchli tarbiyalaydi”.

Mashg`ulotlarda mustaqil ishlarni tashkil etish, qo`yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, o`quv jarayonini boshqaradi, yosh avlodda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi. Bu esa:

- o`zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish ko`nikmalarini shakllantiradi va o`siradi;
- o`quvchilar o`z kuchiga, o`z bilim imkoniyatlariga ishonchni mustahkamlaydi;
- bilim, hissiy aniq tasavvur hosil qilish bilan birga ta`rifu-tasniflarning mohiyatini anglashga, tasavvurni tushuncha darajasida o`zlashtirishga olib boradi. Ona tili mashg`ulotlarida asosiy e`tibor o`quvhilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so`z boyligini oshirishga qaratilishi lozim.

O`quvchi har bir mashg`ulotda mustaqil va ijodiy ishlashi, tilning mavjud imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, so`z boyligini oshirishi, so`zning ma`nosи, urg`usi mohiyatiga qarab o`z nutqida qo`llashi, ravon va tiniq so`zlash malakasini egallashi darkor.

Masalan: 1-topshiriq ...il, ...ul, ...ol so`zlari oldiga bir undosh qo'shib, yangi so`zlar yasang.

Bil, dil, jil, zil, yil, nil, sil...

Bul, gul, kul, pul, tul, shul, kul...

Bol, lol, mol, tol, fol, pol, hol, kol...

2-topshiriq hosil bo`lgan so`zlarning ma`nodosh va uyadoshlarini toping.

Namuna: bil-o`rgan..., bul, shul, ushal, bol-asal.

Ularning ma`nolarini sharhlash orqali o`quvchining nutqiy malakasini shakllantiradi.

3-topshiriq o`quvchilar o`zlari topgan so`zlar ishtirokida so`z birikmali hosil qiladilar, matn yaratadilar.

Til mashg`ulotlarida bunday o`yin – topshiriqlardan foydalanish yoshlarni mustaqil fikrlashga, darsda faol qatnashishga undaydi. Mustaqillik va faollik prinsiplarini amalda qo`llash ta`lim tizimini takomillashtirishda, o`quvchilarning bilish faoliyatini, mustaqilligini tarbiyalashda yaxshi natija beradi.

O`quvchilarni yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o`quv imkoniyatlarini hisobga olish prinsipi. Ta`lim jarayonida o`quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari hamda o`quv imkoniyatlarini hisobga olish didaktikaning eng muhim prinsilaridan biri bo`lib, u ona tili o`qitish samaradorligini oshirishda muhim

ahamiyat kasb etadi. Bu prinsipga amal qilmay turib, til hodisalarini puxta va ongli o`zlashtirishga erishib bo`lmaydi.

Masalan: “Ko`chirma va o`zlashtirma gap” mavzusini o`rganishda quyidagi tarbiyaviy mantdan foydalansa bo`ladi.

O`g`ri.

Bir boyning tillasi yuqolibdi. U qoziga borib arz qilibdi. Qozi da`vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to`plab, har biriga bittadan tayoq beribdi. Qozi da`vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to`plab, har bittadan tayoq beribdi. Ularga: “Kimda kim pul o`g`irlagan bo`lsa, uning tayog`i ertaga bir enli uzayib qoladi: -debdii.

Hamma tarqalib o`z ishi bilan mashg`ul bo`libdi. Lekin o`g`ri vahimaga tushibdi: tayog`i uzayib, siri ochilib qolishdan qo`rqibdi. Natijada u tayog`idan bir enlikcha yerini qirqib tashlabdi.

Topshiriq. 1. Matnni tugating. Boshqa sarlavha toping.

2. 1-2 gaplar shaklini o`zgartiring.

3. Qozi aytgan gapning mazmuniga e`tibor bering. Uni o`z so`zingiz bilan aytинг.

4. Tilla, pul, qozi so`zlariga ma`nodoshlar toping.

Masalan: “Gapning uyushiq bo`laklari” mavzusini o`rganishda Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`atit turk” asaridan keltirilgan matndan foydalanish mumkin. “Men turklar, turkmanlar, ug`izlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko`p yillar kezib chiqdim, lug`atlarni to`pladim, turli so`z xususiyatlarini o`rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik fikrni ham aniqlash uchun qildim. Ularga shunchalik diqqat qildimki, bu tillar butunlay dilimga jo bo`ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim”.

Topshiriq. 1. Matnni diqqat bilan o`qing va sarlavha toping.

2. Men bu ishlarni mazkur tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim”, - degan gapning mazmuniga diqqat qiling.

3. Gap shakllarini o`zgartirib, o`z so`zingiz bilan aytинг.

Ona tili darsligi uchun tanlangan mantlar ta`limiy va tarbiyaviy yo`nalishda, rangbarang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to`g`ri, tili soda va ravon, o`qituvchi uchun tushunarli bo`lishi maqsadga muvoviqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish tizimi va matn tahlili o`quvchi uchun zarur bo`lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Metodikada ilmiylik prinsipi – o`quv predmetlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishi talab etsa, tushunarilik prinsipi o`quv predmetlarini bolalarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni, ya`ni oddiydan murakkabga, xususiydan umumiyya borishni taqozo qiladi.

Ona tili o`qitish metodikasida ilmiylik va tushunarilik prinsiplariga bir-birini to`ldiradigan va dars samaradorligini ta`minlaydigan yagona prinsip sifatida qaraladi. Bu ikki prinsipni parallel ravishda amalga oshirishda.

- til fanidagi tushuncha va atamalarning ma`nosini sharhlash, atroflicha, atroflicha tahlil qilish, puxta o`zlashtirishni ta`minlash;
- til sathlarini o`zaro aloqadorlikka o`rganish;
- til va nutqni farqlab o`rganish usul va vositalarini topish va amaliyotda qo`llash.

- o`quvchilarning yosh imkoniyatlarini, zehni, iqtidorlarini hisobga olish, mustaqil ijodiy fikrlash, uning mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma tarzda to`g`ri, sodda, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo`naltirilgan lingvopsixologik o`yin-topshiriqlardan foydalanish ko`zda tutiladi.

Masalan: kecha va kunduz so`zlarining uxshash va farqli tomonlarini aniqlang va sharhlang.

1. Uxshashlik: berilgan kucha va kecha so`zlar:

- harflar sonining tengligi;
- bir xil undosh bilan boshlanishi;
- talaffuz ohangidagi yaqinlik;
- oxirgi bug`unning – cha bilan tugallanishiga ko`ra bir-biriga yaqin talaffuz qilinadi.

2. Farqi: birinchi bug`undagi ikki xilligi;

- lug`aviy ma`nosi; kecha-tun, oqshom; kucha-aholi yashaydigan joylarda yulovchilar o`tib turadigan, transport qatnaydigan yo`l.

Izchillik prinsipi.

Ta`lim izchilliği uchun tizimlilik o`lchov hisoblanadi. Bu haqda Ya.A.Komenskiy aytadi: “Mashg`ulotlarni shunday o`tkazish kerakki, unda keyin o`rganiladigan hodisa o`rganilganlarga asoslansin, hozirgisi keyingilarini o`rganishda mustahkamlansin”.



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st January, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Haqiqatdan ham, o`quvchilarning nutqiy tayyorgarligiga tayanish, ularning oldingi sinflarda hosil qilgan bilimlarini hisobga olish, o`rganilgan va o`rganiladigan bilimlar urtasida aloqadorlikni ta`minlashga izchillik prinsipi orqali erishiladi.

Masalan: ot, uning ma`nosi, surokleri, birlik va ko`plikda, kelishik, egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi kabi boshlang`ich ma`lumotlarga tayanib, o`quvchilar ot so`z turkumi vositasida so`z birikmalari va gaplar kurishni o`rganishi tizimli va izchil bilim olishga zamin hozirlaydi.

Ko`rsatmalilik va onglilik prinsiplari.

Ta`limda ko`rsatmalilikdan foydalanish o`tiladigan mavzuni zoxiriy ifodalash va egallangan bilimlarni takrorlash va mustahkamlash yuzasidan belgilanadi. Boshlang`ich sinflarda uyunchoqlar, rasmlar, narsa buyumlarni bevosita kuzatish, ushslash va ularning mantiq-mohiyatini chuqurroq anglashga, qurilganlarni og`zaki ifodalash ehtiyoji esa o`quvchida boyitish, mustaqil mushohada ko`nikmasini rivojlantirishga, birlamchi nutqiy malakalar hosil bo`lishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ko`rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingafon, magnitafon, diktafon, radio va televideniya ko`rsatuvlari, o`quv – o`rgatuv texnikasining

so`ngi yutug`lari: kompyuter, multimedya, kolidoskop, vodeoglaz singarilardan unumli va samarali foydalanish o`quvchining ijodiy va nutqiy barkamolligini tanlash, ma`naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Zamonaviy darslik va o`quv qo`llanmalarini takrorlash, umumlashtirish, egallangan buyumlarni mustahkamlashga qaratilgan grammatik jadvallar, kompyuterda ishlashga yunaltirilgan dasturlar, fikrlash jarayonini jadallashtirishga qaratilgan o`quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur doirasini kengaytiruvchi savol, topshiriq va boshqotirmalar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

O`quvchi shaxsida nutqiy tadbirkorlik, notiqlik san`ati kurtaklarini rivojlantirish, og`zaki va yozma matn yaratish malakasini shakllantirish e`tibordan chetda qolib ketmasligi lozim.

Til hodisalarini o`rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko`rgazmali kommunikativ jadvallardir.

Kommunikativ jadvallar ishlatilishi maqsadiga ko`ra turlicha bo`ladi:

1. Leksik jadvallar.

2. Fonetik jadvallar.
3. Grammatik jadvallar.
4. Imloviy (orfografik) jadvallar.
5. Stilistik uslubiy jadvallar.
6. Aralash jadvallar (imlo va so`z yasalishi fonetika va so`z tarkibi) Jadvallar yasalgan materialiga ko`ra ikki xil ko`rinishda bo`ladi.
Bosma (grafik) jadvallar (har xil hajmli oq qog`oz yoki materialga ishlanadi)
Slayd jadvallar (rangsiz kleyonkaga rangli tasvirda tushuriladi)
Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganishda zamonaviy texnika vositalari bo`lmish:
 1. Lingafondan foydalanish ya`ni eshituv a`zolari orqali to`g`ri talaffuzki, qiroat san`atini o`rganish;
 2. Video kurs: o`zbek tilining talaffuz me`yorlari audio-video muloqotini o`rganish.
 3. Kommunikativ savodxonlikni ta`minlashga qaratilgan kompyuter o`quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan:
 - imloviy dasturlar (bunda o`quvchining imlo savodxonligini oshirishga qaratilgan o`quv mashqlari disketlarga joylanadi);
 - fonetik hodisalar kompyuter dasturi (bunda fonetika bo`yicha o`quv mashqlari disketlarga beriladi);
 - Grammatik dastur (morpholiya va sintaksis o`quv topshiriqlari tuzilib, disketlarga joylashtiriladi);
 - Stilistik (uslubiy) dastur. Bunda o`quvchining uslubiyat bo`yicha egallagan bilim va ko`nikmalarini shakllantirish, so`z tanlash, gapni kengaytirish va ixchamlashtirish, berilgan matnni davom ettirish va matn yaratishning bosqichli tizimi (MYaBT) ustida ishslash uchun mo`ljallangan savol va topshiriqlar, mashqlar, ma`rifiy hamda topshiriqli rasmlar (mustaqil matn yaratish uchun) beriladi.
 - Audio-vedio dasturlar. Ularda muayyan bir sharoitda bo`lib o`tgan uchrashuvlar, ilmiy-amaliy kengash va anjumanlar, marosimlar (yubiley, to`y, kelin salom, beshik to`yi); bayramlar – Mustaqillik kuni, Navro`z taronalari, yangi yil oqshomi, bitiruvchilar kechasi (oqshom) tasvirlari videotasmalarga tushirilib, videokassetalarga tartib bilan joylahtiriladi.

Yuqorida keltirilgan o`quv dasturlaridan 1-, 2-, 3 – si so`z boyligini oshirish, fonetika, orfoefiya, leksikologiya, morfologiya, va sintaksis yuzasidan egallangan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash uchun tavsiya etilgan bo`lsa, 4- va 5- dasturlar o`quvchining yozma va og`zaki nutqini shakllantirish, matn yaratish malakalarini rivojlantirish uchun mo`ljallangan.

Bundan tashqari hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganish jarayonini kodoskop, mul`timedia, “Videoglaz” kabi zamonaviy va zaruriy o`quv texnikasi bilan ta`minlanishi, ularning o`quv muassasalarida mavjud bo`lishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Hozirgi kunda o`zbek tili o`qitish metodikasi fanini yutuqlari bilan boyitilmoqda, yangi avlod darslik va o`quv qo`llanmalari yaratilmoqda.

Ulardan biri Sizning e`tiboringizga havola qilinayotgan “Hozirgi o`zbek adabiy tilini o`rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish” nomli yangi o`quv qo`llanmasidir. Unda asosiy e`tibor so`z boyligini oshirish, egallangan Grammatik bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, so`zlash va so`z tanlash mahoratini, matn yaratish hamda nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Qo`llanmaga ilova qilingan kommunikativ ko`rgazmali jadvallar o`zbek adabiy tilida qo`llaniladigan barcha til hodisalarini qamrab olgan bo`lib, test topshiriqlari tuzish va uni echishda zaruriy ashyo vazifasini o`taydi.

Ona tili darslarida, kodoskop va videoglaz singari o`quv texnikasidan samarali foydalanish mumkin. Chunonchi, kodoskop yordamida slayd – jadvallarni maxsus ekranga tushirish mumkin bo`lsa, videoglaz barcha tasviru – yozuvlarni, ko`zga ko`rinadigan barcha jonzotu mavjudotlarni, test topshiriqlaridan tortib, insho matnlarigacha teleekranga chiqarib berishi mumkin.

“Videoglaz” ga nisbatan kodoskopning imkoniyatlari
ancha

chegaralangan. Kodoskop faqatgina shaffof plyonkadagi tasvirlarni ekranga chiqarishga moslashtirilgan. Oq qog`ozdagи tasvir kodoskopda ko`rinmaydi. Shuning uchun ekranga tushirilishi lozim bo`lgan har bir tasvir (test, yozuv, shakl) rangsiz (shaffof) plyonka varrakchalarga rangli flomasterlarda yozilishi maqsadga muvofiq.

Uyga berilgan topshiriqni plyonkada bajarib kelgan o`quvchi o`z ijodiy ishini ekranga tushirib, o`rtoqlari muhokamasiga tashlashi, o`z fikri va yaratgan

yangilagini himoya qilishi, to`g`ri yoki noto`g`riliqi aniq bir xulosa va echimga kelihi mumkin.

Ta`lim texnologiyasida “portlash” effektini beradigan eng yangi texnika vositasi bu- “Videoglaz”. Uning ishlatilishi ko`lami, ichki imkoniyatlari benihoya keng bol`ib, o`qituvchidan katta ijodiy tajriba va pedagogic mahoratini talab qiladi.

“Videoglaz” ning qulayligi, benuqsonligi shundaki, u videokameraga uplash ko`z vazifasini o`taydi. Unda hamma narsa bevosita teleekran yoki ko`chma ekranga qayta tasvir uchun uzatilaveradi. Bu ta`lim jarayonida tafakkurning mutlaq tantanasiga, inson aqlu zakovatining turli qirralarini ochib beruvchi, bolaga o`z iqtidorini namoyish qilish imkoniyatini yaratib beruvchi omilga aylantiradi.

Ona tili o`qitishning o`ziga xos prinsiplari.

Tilshunoslik fanida o`rganiladigan bilimlarning asoslari, ularning o`ziga xos xususiyatlari batafsil bayon etiladi.

Tilda nimani qanday, qancha, o`rganish, o`zlashtiriladigan bilimlar hajmi va mazmuni kabi masalalar bilan metodika fani shug`ullanadi.

Demak, til o`qitishning metodik prinsiplari ham tilshunoslik, ham uslubshunoslikning o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra belgilanadi.

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish

Ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi.

Natijada:

o`quvchidagi noma`lum bo`lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi;

egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqarliligi ta`minlanadi.

Til materillarini qilishga qiziqish ortadi.

Demak, tafakkurni o`stirish til mashg`ulotlarida til hodisalarini kuzatish, takrorlash, tasrif qilish, umumlashtirish, uplash vositalardan eng qulayini to`g`ri tanlay olish ko`nikmalarini shakllantirish asosida yuzaga keladi.

Til ta`limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodaliligi va ta`sirchanligini (so`z urg`usi va mantiqiy u`rg`u, pauza va ovoz tembri, nutq sur`ati, tovush, bug`un, so`z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko`ra darak, so`roq, buyruq, undov ohangi bilan ayta olish) ta`minlashda ko`nikma va malakalar ham ona tili mashg`ulotlarida shakllanadi.

Tilning barcha bo`limlari ham nutqiy rivojlantirishda keng imkoniyatga ega.

Masalan: “Fonetika” ni o’rganishda so`zdagi ma`lum bir tovushni uzgartirib, tovushdosh, so`zlar hosil qilish, shuningdek, o`zakdosh, qo`shimchadan qofiyadosh, ohangdosh so`zlar yasash, ularning lug`aviy ma`nolari hamda ma`no guruhlari ustida ishlash o`quvchi so`z boyligini oshiradi, nutqiy malakalarini shakllantiradi. 1-topshiriq. Berilgan so`zni zinapoya shaklida kengaytirib, yangi so`zlar yasang. Har bir so`z oldingisidan bir tovush bilan farqlansin.



O	L				
O	L	A			
O	L	A	M		
O	L	I	M	A	
O	L	I	N	M	A

1.2. Hosil qilingan so`z ma`nosini sharhlang.

1.3. Ulardan so`z birikmali hosil qiling.

1.4. Mazkur birikmalar ishtirokida gap tuzing.

“Leksikologiya” ni o’rganishda so`zning o`z va ko`chma ma`nosini farqlash, ko`p ma`noli, ma`nodosh, uyadosh, shakldosh so`zlar ustida ishlash so`z boyligini oshirish va boyitishga xizmat qiladi. Yosh avlod qalbida o`z ona tili bilan faxrlanish, unga muhabbat hissini tarbiyalaydi.

1-topshiriq quyida berilgan gaplarni o`qing. **Bosh** so`zi qaysi ma`noda ekanligini aniqlang.

1. Oybekning boshi og`ridi. 2. Oybekning boshi yaxshi ishlaydi. 3. Urushda qancha bahodirlarning boshi ketdi. 4. Fermerga o`n bosh qora mol berildi.

2-topshiriq. Gaplarni o`qing. Qaysi so`z o`z ma`nosida, qaysisi ko`chma ma`noda ishlatilganini aytинг.

1. Navoiy asarlarini o`qiymen – Navoiyni o`qiymen.
2. A.Oripov she`rlaridan yod oldim – A.Oripovdan yod oldim.
3. Samovarda suv qaynaydi. – Samovar

Ona tili darslarida lingvopsixologik topshiriqlar ustida ishlash aqliy faoliyatni rivojlantiradi, o`quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur kabi intellectual qobiliyatlarni o`stiradi, mustaqil va ijodiy izlanishga urgatadi.



REFERENCES

1. X.Ne`matov, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent. “O`qituvchi” 1993 yil.
2. X.Ne`matov, A.G`ulomov. Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish. Toshkent. 1992 yil.
3. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil 3-4 qo`shma soni. 27-30 betlar.
4. Yu. K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida, o`qitish metodlari. Toshkent. “O`qituvchi” 1990 yil.
5. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta`limni tashkil qilish. Toshkent. “O`qituvchi” 1981 yil.
6. M.Saidov. Muammoli ko`rgazmalardan foydalanish. “Til va adabiyot ta`limi” jurnali. 1993 yil. 5-6 qo`shma soni. 13-14 betlar.
7. www.ziyonet.uz